

► **Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini takomillashtirish bo‘yicha tayyorlangan alifbo loyihasi**

Yorqinjon ODILOV,  
O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti bo‘lim mudiri, filologiya fanlari  
doktori, professor

*“Ona tilimiz milliy  
ma’naviyatimizning bitmas-  
tuganmas bulog’idir. Shunday  
ekan, unga munosib hurmat va  
ehtiyom ko’rsatish barchamizning  
nafaqat vazifamiz, balki muqaddas  
insoniy burchimizdir”*

**Shavkat Mirziyoyev,  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**



# **“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevralda **“Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi qarori talablari hamda Prezidentimizning 2023-yil 5-iyul kuni Toshkent shahri saylovchilari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvida alifbomizni isloh qilish bo‘yicha bildirgan takliflari asosida Ishchi guruh tomonidan takomillashtirilgan alifbo loyihasi ishlab chiqildi.



*“Mana, keyingi paytda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish bo‘yicha katta ishlarni amalga oshiryapmiz. Ayni paytda oldimizda yangi, yanada muhim vazifalar turibdi. Jumladan, ziyolilarimiz, keng jamoatchiligimiz bilan bamaslahat, lotin yozuviga asoslangan alifbomizni takomillashtirish bo‘yicha ishlarni yakuniga yetkazishimiz zarur”*  
**(Toshkent shahri saylovchilari bilan uchrashuvda bildirilgan taklif)**



- ▶ Loyihada shu paytga qadar ko‘p murakkabliklarni yuzaga keltirayotgan ayrim harflar isloh qilindi.

Jumladan:

**Amaldagi alifbo**

**Ch ch**

**G‘ g‘**

**O‘ o‘**

**Sh sh**

**Loyihadagi taklif**

**C c**

**Ğ ğ**

**Õ õ**

**Ş ş**

## LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSI LOYIHASI

<b>№</b>	<b>Bosma</b>	<b>Talaffuzi</b>	<b>Kirill</b>	<b>№</b>	<b>Bosma</b>	<b>Talaffuzi</b>	<b>Kirill</b>
<b>1</b>	<b>A a</b>	<b>a</b>	<b>А а</b>	<b>16</b>	<b>O o</b>	<b>o</b>	<b>О о</b>
<b>2</b>	<b>B b</b>	<b>be</b>	<b>Б б</b>	<b>17</b>	<b>Õ õ</b>	<b>õ</b>	<b>Ӧ ӧ</b>
<b>3</b>	<b>C c</b>	<b>ce</b>	<b>Ч ч</b>	<b>18</b>	<b>P p</b>	<b>pe</b>	<b>П п</b>
<b>4</b>	<b>D d</b>	<b>de</b>	<b>Д д</b>	<b>19</b>	<b>Q q</b>	<b>qe</b>	<b>Қ қ</b>
<b>5</b>	<b>E e</b>	<b>e</b>	<b>Э э</b>	<b>20</b>	<b>R r</b>	<b>re</b>	<b>Р р</b>
<b>6</b>	<b>F f</b>	<b>fe</b>	<b>Ф ф</b>	<b>21</b>	<b>S s</b>	<b>se</b>	<b>С с</b>
<b>7</b>	<b>G g</b>	<b>ge</b>	<b>Г г</b>	<b>22</b>	<b>Ş ş</b>	<b>şe</b>	<b>Ш ш</b>
<b>8</b>	<b>Ğ ğ</b>	<b>ĝe</b>	<b>Ғ ғ</b>	<b>23</b>	<b>T t</b>	<b>te</b>	<b>Т т</b>
<b>9</b>	<b>H h</b>	<b>he</b>	<b>Ҳ ҳ</b>	<b>24</b>	<b>U u</b>	<b>u</b>	<b>У у</b>
<b>10</b>	<b>I i</b>	<b>i</b>	<b>И и</b>	<b>25</b>	<b>V v</b>	<b>ve</b>	<b>В в</b>
<b>11</b>	<b>J j</b>	<b>je</b>	<b>Ж ж</b>	<b>26</b>	<b>X x</b>	<b>xe</b>	<b>Х х</b>
<b>12</b>	<b>K k</b>	<b>ke</b>	<b>К к</b>	<b>27</b>	<b>Y y</b>	<b>ye</b>	<b>Й й</b>
<b>13</b>	<b>L l</b>	<b>le</b>	<b>Л л</b>	<b>28</b>	<b>Z z</b>	<b>ze</b>	<b>З з</b>
<b>14</b>	<b>M m</b>	<b>me</b>	<b>М м</b>	<b>29</b>	<b>ng</b>	<b>eng</b>	<b>НГ</b>
<b>15</b>	<b>N n</b>	<b>ne</b>	<b>Н н</b>	<b>30</b>	<b>'</b>	<b>Tutuq b.</b>	<b>Ъ</b>



## O'ZGARAYOTGAN HARFLAR HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

Yangi	Amaldagi	Izoh
C c	Ch ch	<p>1) C c harfi 1929-1940-yillardagi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida ham Ch ch tovushini ifodalagan.</p> <p>2) C c harfi amaldagi Ch harfining tarkibiy qismi bo'lgani uchun aholi tomonidan oson qabul qilinadi.</p> <p>3) C c harfi alifboga kirishi tufayli lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi to'kis holga keladi.</p> <p>4) C c harfi orqali Ch ch tovushini ifodalash tajribasi boshqa xalqlar (masalan, italyan) yozuvida ham mavjud.</p>

**IZOH:** Alifbo loyihasi **28 ta harf, bitta harflar birikmasi va tutuq belgisidan** iborat.

<b>Yangi</b>	<b>Amaldagi</b>	<b>Izoh</b>
Õ õ	O‘ o‘	<p>1) Õ õ harfi amaldagi yozma shakl bilan bir xil bo‘lgani uchun aholi tomonidan oson qabul qilinadi.</p> <p>2) Õ õ harfi portugal, eston va boshqa xalqlar alifbosidan joy olgan bo‘lib, aksar shriftlar tarkibida mavjud.</p>



<b>Yangi</b>	<b>Amaldagi</b>	<b>Izoh</b>
Ş ş	Sh sh	<p>1) Ş ş harfi 1929-1940 va 1993-1995-yillardagi lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida ham Sh sh tovushini ifodalagan.</p> <p>2) Ş ş harfi boshqa turkiy xalqlar alifbosidan ham joy olgan bo‘lib, aksar shriftlar tarkibida mavjud.</p>

<b>Yangi</b>	<b>Amaldagi</b>	<b>Izoh</b>
ng	Ng ng	<p>1) ng tovushi hech qachon so‘z boshida kelmagani uchun ushbu harflar birikmasining bosh shakli – Ng dan voz kechilmoqda.</p> <p>2) ng harflar birikmasi yaxlit harfga aylantirilmasdan hozirgidek n va g harflari orqali ifodalanmoqda.</p>

# SABABLAR

- bu tovush uzoq vaqt davomida arab, kirill va hozir amalda bo'lgan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbolarida ham n+g birikmasi orqali ifodalangan;
- yangi, mangu kabi talaffuzida o'zgarish sodir bo'lgan ko'p so'zlarni ifodalashda anglashilmovchiliklar, muammolar yuzaga keladi;
- kirill va hozir amalda bo'lgan lotin yozuvidagi adabiyotlarni dasturlar orqali o'girishda muammolar paydo bo'ladi. Ya'ni dasturlar ng tovushi bilan birgalikda matnda yonma-yon kelgan ikkita mustaqil n va g harflarini ham (Namangan, nonga, angina) yaxlit harfga aylantirib yuboradi;
- ng harflar birikmasi Ch va Sh harflar birikmasidan farqli o'laroq hozir hech qanday muammo paydo qilayotgani yo'q. Aksincha, bu birikma yaxlit harfga aylansa, yuqoridagi va boshqa muammolarni yuzaga keltirib, yangi alifboning aholi orasida ommalashishini qiyinlashtiradi.



# O'ZGARISHI KUTILAYOTGAN HARFLARNING KOMPYUTER KLAVIATURASIDA AKS ETISHI



*E'tiboringiz  
uchun rahmat*

Three white diagonal lines of varying lengths and thicknesses are positioned in the bottom right corner of the page, extending from the right edge towards the center.